



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2018 yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga investitsiyalar

Joriy davrda 21 861,5 mlrd so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, ularning 53,3 %i yoki 11 653,8 mlrd. so‘m jalb etilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, korhona, tashkilot va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan 46,7 %i yoki 10 207,7 mlrd. so‘m moliyalashtirildi.

Joriy davrda markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi o‘tgan yilning mos davridagi ulushiga nisbatan 1,0 % punktga ko‘payib, 17,5 % ni yoki 3 830,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.





Asosiy kapitalga investitsiyalar

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan:

Respublika byudjeti:
1 065,0 mlrd.so‘m

Davlat maqsadli jamg‘armalari:
640,9 mlrd.so‘m

O‘zR kafolati ostida xorijiy kreditlar:
243,0 mlrd. so‘m

Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi:
1 881,2 mlrd.so‘m

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan:

Aholi mablag‘i :
1 258,1 mlrd.so‘m

Korhona mablag‘i:
8 949,6 mlrd.so‘m

Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari:
4 313,4 mlrd.so‘m

To‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar:
3 510,3 mlrd.so‘m

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 1,0 % punktga kamayib, 82,5 %ni yoki 18 031,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.


O‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida korhona va tashkilotlar mablag‘lari ulushi salmoqli bo‘ldi – 8 949,6 mlrd. so‘m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 40,9 %i. Aholi mablag‘lari hisobidan jami asosiy

kapitalga investitsiyalarning 5,8 %i yoki 1 258,1 mlrd.so‘m o‘zlashtirildi.

Joriy davrda Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi jadal o‘sib 1 881,2 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 2017 yil yanvar-dekabr davridagi jami asosiy Asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi 2018 yil yanvar - dekabr kapitaldagi ulushiga nisbatan 6,0 % punktiga ko‘payib 8,6 %ni tashkil etdi.

Moliyalashtirish manbalari bo`yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

(jami hajmdagi ulushi, %da)



Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 4 313,4 mlrd.so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 19,7 %ini tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,5 % punktiga ko'payish kuzatildi), to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 3 510,3 mlrd.so'm (16,1 % va 1,4 % punktiga ko'payish), O'zbekiston Respublikasi kafolati

ostida xorijiy kreditlar 243,0 (1,1 % va 2,4 % punktiga kamayish), Respublika byudjeti 1 065,0 mlrd.so'm (4,9 % va 2,3 % puktiga kamayish), Davlat maqsadli jamg'armalari 627,6 (2,9 % va 0,3 % punktiga kamayish) va Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan esa 13,7 mlrd.so'm (0,1 %) asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.




Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (davomi)

	mlrd.so'm	o'sish surati, %da	jamiga nisbatan, %da
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan	21861,5	114,7	100,0
Republika byudjeti	1065,0	76,9	4,9
Davlat maqsadli jamg'armalari	640,9	103,7	2,9
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	1881,2	382,1	8,6
O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar	243,0	36,3	1,1
Korhona mablag'lari	8949,6	111,0	40,9
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	4313,4	138,1	19,7
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	3510,3	124,6	16,1
Aholi mablag'i	1258,1	71,7	5,8



Tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar


Asosiy kapitalga investitsiyalarning o`shish suratlari



Tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirilishi bo`yicha o`tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o`shish surati 167,2 % ko`payish Sergeli tumanida kuzatildi. Bu asosan "Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroporti" va "O`zbekiston rangli metal parchalari chiqindilarini tayyorlash va qayta ishlash zavodi"ni modernizatsiyalash bo`yicha investitsiyalar bilan bog`liq. Yakkasaroy tumanida ham 8,9 foizga o`shish kuzatilib, ushbu

hududdagi asosan chet el investitsiyasi ishtirokidagi "COSCOM" mas`uliyati cheklangan jamiyati aloqa sifatini oshirish uchun qo`shimcha antenna uskunalari harid qilganligini keltirish mumkin. Chilonzor tumanida o`tgan yilning mos davriga nisbatan 8,5 % ga ortiq o`shishi asosan "KO`PRIKQURILISHTA`MIRLASH DIREKSIYASI" UK Bunyodkor ko`chasiidagi yo`l o`tkazmasining qurilish ishlarini olib borganligi bilan bog`liq.

Shahardagi ulushi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirilgan hajmi bo'yicha hudular kesimida Sergeli tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 18,3 %i o'zlashtirildi.

Shuningdek, Yunusobod tumanining Toshkent shahri bo'yicha investitsiyalar hajmidagi ulushi 16,1 %ni, Mirobod tumani -


keyingi o'rinda 12,0 % ni tashkil etmoqda.

Chilonzor va Shayxontoxur tumanlarida ushbu ko'rsatkich mos ravishda 9,2 va 9,1 %ni tashkil etdi.

Uchtepa hamda Bektemir tumanlarida investitsiyalar eng kam o'zlashtirilgan bo'lib, har birining shahardagi ulushi 4,7% va 2,8%ni tashkil etdi.




Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha 9 243,7 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar 11 541,4 mlrd. so'm va boshqa xarajatlarga 1 076,4 mlrd. so'm o'zlashtirildi.




Tumanlar kesimda texnologik tarkibi





Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi




Joriy davrda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aksariyat qismi yangi qurilishga yo'naltirilgan. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 8 954,3 mlrd.so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 41,0 %ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish,

rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 6 130,5 mlrd.so'mni tashkil etdi va Respublikada jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 28,0 %ini tashkil etdi. Qolgan 31,0 %, yani 6 776,7 mlrd.so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.



Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (tumanlar kesimida)



Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Chilonzor tumanida kuzatilib, 63,2 %ni tashkil etdi.


Shuningdek, Mirzo Ulug'bek

tumanida 52,6 %, Yunusobod tumanida 47,6 % va Mirobod tumanida 47,2 %ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichning eng past darajasi Bektemir tumanida 6,0 %ni tashkil etdi.



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida sanoat yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 5 639,2 mlrd.so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 25,8 %i o'zlashtirilgan.

Sanoat tarmog'ida tarkibida eng ko'p investitsiya o'zlashtirilgan 3 faoliyat turi quyidagilar:

- Oziq-ovqat sanoati 1 481,5

mlrd.so'm (6,8 %);

- Mashinasozlik majmuasi 1 157,7 mlrd.so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 5,3 %);

- Oynasozlik va farfor-foyans sanoati 890,4 mlrd.so'm (4,1 %).

Undan keyingi o'rinda transport tarmog'i 3 759,6 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 17,2 %i o'zlashtirildi.



Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar




mlrd.so'm

	Jami investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		To`g`ridan - to`g`ri va boshqa investitsiya va kreditlar	shu jumladan:	
		investitsiya	kredit		investitsiya	kredit
Toshkent sh. tumanlar:	3 753,3	2 311,1	1 442,2	3 510,3	2 311,1	1 199,2
Bektemir	28,2	14,1	14,1	14,1	14,1	-
Mirzo Ulug'bek	137,7	137,7	-	137,7	137,7	-
Mirobod	318,0	74,6	243,4	318,0	74,6	243,4
Olmazor	30,0	26,2	3,7	30,0	26,2	3,8
Sergeli	271,5	2,1	269,4	271,5	2,1	269,4
Uchtepa	321,0	108,4	212,7	108,4	108,4	-
Chilonzor	869,2	863,9	5,3	867,4	863,9	3,5
Shayxontoxur	249,8	249,8	-	249,8	249,8	-
Yunusobod	1 248,7	609,5	639,2	1 248,7	609,5	639,2
Yakkasaroy	173,2	120,7	52,5	158,8	120,7	38,1
Yashnobod	106,0	104,1	1,8	105,9	104,1	1,8



Obyektlarni ishga tushirish

Toshkent shahri bo'yicha ishga tushirilgan uy-joylar, ming kv.m



- | | | |
|--------------|------------------|-------------|
| ■ Bektemir | ■ Mirzo Ulug'bek | ■ Mirobod |
| ■ Olmazor | ■ Sergeli | ■ Uchtepa |
| ■ Chilonzor | ■ Shayxontoxur | ■ Yunusobod |
| ■ Yakkasaroy | ■ Yashnobod | |



Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiy maydoni 576,7 ming kv.m, bo'lgan 2 328 ta turar joy obyekti yangi qurilib ishga tushirilgan.

Ishga tushirilgan turar joylarning hududlar kesimida ko'radigan bo'lsak, eng ko'pi Yunusobod tumanida ishga tushirilgan 123,0

ming kv.m. va u shahar bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 21,3 %ini tashkil etdi. Keyingi o'rinlarda Sergeli, Olmazor tumanlari egallagan bo'lib, shahar bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 18,2% va 11,9 %ini tashkil etishgan.



**Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

B. Shoimqulov
(0371) 230-88-18